

O'ZBEKISTON VILOYATLARIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI SEKTORIDA IJTIMOIIY VA IQTISODIY O'ZGARISHLAR

Rashidov Malik Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Biznesni boshqarish (Master of Business Administration - MBA)

(General) mutaxassisligi sirtqi ta'lim shakli 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15072685>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston viloyatlaridagi qishloq xo'jaligi sektoridagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Viloyatlar misolida, mahsulot ishlab chiqarish va eksportdagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil etiladi. Biroq, ayrim hududlarda texnologik rivojlanishning pastligi, infratuzilma muammolari va malakali ishchi kuchi yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu maqola, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kelajakdagi islohotlar va strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, viloyatlar, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy o'zgarishlar, modernizatsiya, mahsulot ishlab chiqarish, eksport, investitsiyalar, qishloq infratuzilmasi, texnologik yangilanish.

SOCIAL AND ECONOMIC CHANGES IN THE AGRICULTURAL SECTOR IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes social and economic changes in the agricultural sector in the regions of Uzbekistan. On the example of the regions, changes in production and exports, economic growth and measures taken to attract investments are analyzed. However, in some regions there are problems such as low technological development, infrastructure problems and a shortage of qualified labor. This article will help in developing future reforms and strategies to modernize agriculture and ensure economic growth.

Keywords: Uzbekistan, regions, agriculture, economic changes, social changes, modernization, production, exports, investments, rural infrastructure, technological innovation.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье анализируются социальные и экономические изменения в аграрном секторе регионов Узбекистана. На примере регионов анализируются изменения в производстве и экспорте, экономический рост, принимаемые меры по привлечению инвестиций. Однако некоторые регионы сталкиваются с такими проблемами, как низкий уровень технологического развития, проблемы с инфраструктурой и нехватка квалифицированной рабочей силы. Эта статья поможет разработать будущие

реформы и стратегии по модернизации сельского хозяйства и обеспечению экономического роста.

Ключевые слова: *Узбекистан, регионы, сельское хозяйство, экономические изменения, социальные изменения, модернизация, производство, экспорт, инвестиции, сельская инфраструктура, технологические инновации.*

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lmish qishloq xo'jaligi sohasining viloyatlar darajasida rivojlanishi, mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi sektori nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki ish o'rinlarini yaratish va mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, viloyatlar o'rtasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda turlicha ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar mavjud.

Ushbu maqolada O'zbekistonning turli viloyatlaridagi qishloq xo'jaligi sektoridagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar baholanadi va bu o'zgarishlarning mamlakat rivojiga ta'siri tahlil qilinadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti ko'p tarmoqli hududiy ishlab chiqarish majmuidan iborat bo'lib, uning poydevorini ixtisoslashgan tarmoqlar tashkil etadi. Yoqilg'i, mashinasozlik, rangli va qora metallurgiya, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati kabilar ana shunday makroiqtisodiy tarmoqlar turlariga kiradi.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari orasida iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar mavjudligi jihatidan ajralib turadi. Eng avvalo tabiiy-geografik sharoitning qulayligi, zaminimizda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlarining topilganligi, serunum yerlarimiz borligi va ayniqsa xalqimizning mehnatsevarligi milliy iqtisodiyotning tarmoqlarini rivoj topishiga olib keldi.

Respublikamiz iqtisodiyoti o'zining ma'lum tarixiga ega. Sobiq SSSR mavjudligida hayotning barcha jabhalari, shu jumladan iqtisodiy hayot markaz tomonidan "tartibga" solinib turilar edi. Respublika uchun dolzarb bo'lgan muammo-masalalarni o'z erki bilan hal etish huquqidan mahrum edi. Qator asosiy boyliklarimiz, jumladan oltin, paxta kabilarning taqdiri markaz ixtiyorida bo'lgan. O'sha davrda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida nomutanosiblik vujudga keldi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi tufayli yuqorida aytib o'tilgan kamchilik-nuqsonlarni tugatish borasida muhim chora-tadbirlar amalgam oshirildi. Hayotimizning barcha jabhalarida, shu jumladan iqtisodiyotda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni turli mamlakatlarda umumiy qonuniyatlar negizida ro'y beradi va asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bilan birga bunday mamlakatlarning har biri bu borada o'ziga xos ayrim xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar xo'jalik tarkibi va yo'nalishi, mamlakatning geografik o'rni, tabiiy-iqlim sharoitlari, mavjud tabiiy boyliklari, milliy-urf odatlar, aholi an'analari bilan belgilanadi. Aytib o'tilgan ana shu omillar e'tiborga olinib Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos modeli shakllantirilgan. Ushbu modelning eng asosiy tomonlari mamlakatimiz Prezidenti asarlari va farmonlarida, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, hukumat qarorlarida o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti talablari asosida Respublikada o'rta va kichik biznes faoliyati, tadbirkorlik, ishbilarmonlik keng tus olmoqda, mulkchilikning turli shakllari vujudga kelmoqda, ishlab chiqarishda davlat tasarrufidagi faoliyatlar doirasi toraya borib nodavlat sohasi keng rivojlanmoqda. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi ustivor masalalarni hal etish, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish hamda aholi farovonligini ko'tarish borasida zarur sharoitlar yaratish imkonini bermoqda.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, avvalo, uning tarkibidagi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Sanoat shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, transport hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan paxtachilik, ipakchilik kabilarning talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida tashkil topdi va rivojlandi.

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariga o'ta boorish tufayli Respublika sanoat tarmoqlari asta-sekin takomillashib, o'zaro bog'langan majmua shaklini olmoqda. O'zbekiston sanoati respublikada mavjud bo'lgan tabiiy va iqtisodiy boyliklardan, tez o'sib borayotgan mehnat resurslaridan oqilona foydalanish asosida rivojlanmoqda. Respublikada yer bag'ridan topilgan va ishga tushirilgan tabiiy gaz, oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, ko'mir va boshqa boyliklar bu borada ayniqsa katta ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida sanoatning ulushi kamaya borib, qayta ishlovchi sanoat hissassi ortib bormoqda.

O'zbekiston sanoatida yetakchi o'rinni og'ir sanoat egallab kelmoqda. Ma'lumki, sanoat tarkibiga yoqilg'i-energetika majmuasi, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik majmuasi, qurilish materiallari sanoati kabilar kiradi.

1-jadval

O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi

Sanoat tarmoqlari	Jamiga nisbatan foiz
Elektr energetika	10,2

Yoqilg'i sanoati	13,3
Rangli metallurgiya	8,9
Qora metallurgiya	1,0
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	11,7
Kimyo- va neft-kimyo sanoati	5,4
Yog'ochsozlik va selyuloza qog'oz sanoati	1,2
Qurilish materiallari sanoati	5,5
Oyna, chinni, fayans buyumlari sanoati	0,3
Yengil sanoat	17,3
Oziq-ovqat sanoati	13,6
Un tortish, yorma-omuxta sanoati	9,0
Boshqa sanoat tarmoqlari	2,6

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda ko'rinib turibdiki, butun sanoatning qariyb uchdan ikki qismini og'ir sanoat tashkil etadi. Og'ir sanoat milliy iqtisodiyotning qator tarmoqlarini yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlaydi, transport vositalari va qishloq xo'jaligini tarmoqlarini qayta qurish negizi bo'lib hisoblanadi. Ammo og'ir sanoat mohiyati va uning tutgan o'rni bu bilan chegaralanmaydi. U aholining turli-tuman mahsulotlarga bo'lgan talab-ehtiyojini qondirishda, uning moddiy farovonligini oshirishda ham ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i bo'lgan og'ir sanoat yengil, oziq- ovqat sanoatlari va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini fundamenti hisoblanadi.

Og'ir sanoat tarmoqlari orasida **elektr energetika sanoati** yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Hozirgi zamon ishlab chiqarishining bosh omili va asosi aynan elektr energiya sanoatidir. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning biron sohasini yoki umuman kundalik hayotimizni bu tarmoqsiz tasavvur qilish qiyin. Elektr quvvatining asosiy qismi Respublikada qad ko'targan qator yirik issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Bunday stansiyalar jumlasiga Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Angren, Taxiatosh IES lari kiradi. O'zbekiston energetika sistemasi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,3 mln. kVt. bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt. soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab ciqaradi. 1923 yildan Toshkent shahri yaqinida Bo'zsuv kanalida GES qurilishi boshlandi va u 1926 yil 1 mayda ishga tushdi.

Yoqilg'i sanoati. Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutayotgan sanoat tarmoqlari qatorida yoqilg'i sanoati alohida mavqega ega. Ushbu tarmoq asosan tabiiy gaz, neft, ko'mir chiqarishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston tabiiy gazning katta zahiralari ega.

Respublikada gaz qazib olish yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 1991 yili O'zbekistonda ishlab chiqarilgan gaz miqdori 41,8 mlrd. m³ ni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yili bu ko'rsatkich 56,4 mlrd.m³ ga yetdi.

Respublikada 159 ta neft- gaz koni ochilgan. Ularning 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provinsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yoqilg'i-energetika majmui mahsulot hajmi 18,3 % ni tashkil etadi. Sanoatda band bo'lgan ishchi xizmatchilarning 6 % i yoqilg'i sanoati tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi. Yoqilg'i tarkibi ichida neftning hissasi 8,3 % ni, gazning hissasi 87,3% ni, ko'mirning hissasi 4,4 % ni tashkil etgan.

Gaz sanoati. Jarqoq, Setalontepa, Gazli konlari, Ustyurtda Shoxpaxta konlari mavjud bo'lib, 1972 yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Qashqadaryoda qad ko'targan Sho'rtangaz kimyo-majmuasi O'rta Osiyodagi eng yirik korxonalardan hisoblanadi. Bu ulkan korxona to'laligicha mahalliy xom ashyo asosida ishlaydi va yiliga 3 mln. tonna gazni qayta ishlab 125 ming tonna polietilen, 140 ming tonnaga yaqin suyultirilgan gaz hamda gazni qayta ishlashdan hosil bo'ladigan boshqa mahsulotlar ham oladi. Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritishi tufayli aholini qulay **yoqilg'i-gaz** bilan ta'minlashda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Buning dalili sifatida aholi zich joylashgan Andijon viloyatining Xo'jaobod shahrida yirik yer osti gaz ombori qurilganligini aytib o'tish mumkin.

Neft sanoati. Yoqilg'i sanoatining rivojlanishida neftning tutgan o'rni yil sayin ortib bormoqda. Yirik neft konlari Chimyon koni, Surxondaryoda Uchqizil, Xovdog', Farg'onada Janubiy va Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Andijon konlari kiradi. 1985 yilda Ko'kdumaloq koni ochildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida surkov moylari, yonilg'i ishlab chiqariladi.

Ko'kdumaloq koni ochilgandan so'ng Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda 1993 yildan Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi qurila boshlandi va u 1995 yilning 19 mayidan mahsulotni bera boshladi. Bu zavodlarda dizel yoqilg'isi, koks, parafin, motor va surkov moylari, kerosin, bitum, mazut ishlab chiqaradi.

Ko'mir sanoati. Mamlakat yoqilg'i sanoatida ko'mir ishlab chiqarish ham muhim o'rin egallaydi. Bu borada Angren qo'ng'ir ko'mir koni va Surxondaryodagi Sharg'un, Boysun ko'mir konlarining ulushi katta. Angren qo'ng'ir ko'mir koni respublikada chiqarilayotgan jami ko'mirning 97 % ini beradi.

Respublika sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o'rinlardan birini **rangli metallurgiya** egallaydi. Sanoatning bu tarmog'i asosan Toshkent viloyatining Angren-Olmaliq tog-kon sanoat hududida joylashgan. Bu tarmoq asosan 1930 yillardan rivojlandi. Qoramozor mis-qo'rg'oshin-rux koni, Obirahmat, Burchmulla, Oqtuz, Takob, Ingichka, Qo'ytosh, Langar- rangli metallar, Chodak, Zarmitan, Marjonbuloq, Kauldi, Kokpatas, Qizilolmalisoy-oltin konlari, Qo'rg'oshinkon, Oltintopgan qo'rg'oshin-rux, Qalmoqqir-mis konlari mavjud. Mis-qo'rg'oshin-rux ni qayta ishlovchi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, volfram va molibdenni qayta ishlovchi O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar kombinati Chirchiq shahrida

ishlab turibdi. Kombinat Ingichka konidan qazib olinayotgan- volfram va Qo'ytosh volfram-molibden konlari asosida ishlaydi. Respublika oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4 chi, qazib olish bo'yicha 7 chi o'rinda turadi. 1992 yili AQSH ning "Nyumont-mayning" kompaniyasi bilan Muruntov oltin konida qazib olinayotgan rudalarni qayta ishlash va ulardagi oltinni chiqarib olish maqsadida qo'shma korxona qurish to'g'risida kelishib olindi. 1995 yili may oyida "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi bitkazilib ishga tushirildi.

Mamlakatimiz o'zining **qora metallurgiya sanoatiga** ham ega, ammo uning respublika iqtisodiyotidagi o'rni unchalik katta emas. Bekobod shahrida qurilgan qora metallurgiya kombinati asosan temir-tersaklarni qayta ishlash orqali mahsulot chiqaradi va mahalliy ehtiyojni to'la qondirmaydi. Mazkur korxona asosan po'lat, prokat, turli xil trubalar ishlab chiqaradi. Bu korxona 1944 yil 5 martda ishga tushgan.

O'zbekiston sanoatida **mashinasozlik** sanoati o'ziga xos o'rinni egallaydi. Bu sanoat tarmog'iga mansub bo'lgan korxonalarda xilma-xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar tayyorlanadi. Ular qatorida paxta teruvchi mashinalar, yerga urug' qadaydigan, to'quv- yigiruv, sug'orish mashinalari, turli xil stanoklar, televizor va magnitofon kabi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqariladi. Aholisi zich bo'lgan Andijon viloyatining Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan yirik korxona bunyod etildi.

Bu korxona 1996 yildan boshlab birin-ketin "Damas", "Tiko", "Neksiya", "Matiz" rusumli qulay avtomobillarni chiqara boshladi. Shunday qilib, O'zbekiston jahon miqyosida avtomobillar chiqarayotgan davlatlarning 28 chisi bo'ldi.

Sanoatning mashinasozlik tarmog'iga Toshkentdagi traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodi, Toshkent agregat zavodi kabi yirik korxonalar kiradi. Respublikaning boshqa ko'pgina shaharlarida ham mashinasozlik tarkibiga kiruvchi qator korxonalar ishlab turibdi. Radioelektronika, elektrotexnika korxonalari-Toshkentda "O'zkabel", Toshkent radiolampa zavodi (Foton), Chirchiq transformator zavodi, Mikond-radiodetallar, shisha izolyatorlar ishlab chiqaruvchi zavod. 1982 yildan "Algoritm" EHM ishlab chiqaradi. "Zenit" zavodi Janubiy Koreyaning "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda videomagnitofonlar, videopleyrlar, Xitoy bilan hamkorlikda rangli televizorlar ishlab chiqarmoqda.

O'zbekiston poytaxti Toshkentda jahon aviatsiya sanoati andozalari bo'yicha yirik korxonalardan biri bo'lib hisoblangan V.Chkalov nomli aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi joylashgan. Bu korxonada ishlab chiqarilayotgan qulay samolyotlar jahonning qator davlatlarida xizmat qilmoqda.

Kimyo sanoati ham respublika sanoat tarmoqlari orasida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Neft, tabiiy gaz, ko'mir, oltingugurt, osh tuzi, paxta va kanop chiqindilari busanoatning xomashyosi bo'lib hisoblanadi. Kimyo sanoatida 750 dan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi.

Birinchi korxona- 1932 yilda Sho'rsuvda Farg'ona oltingugurt koni ishga tushdi. Eng yirik korxona Chirchiq elektro kimyo kombinati 1940 yilda ishga tushgan. **Mineral o'g'itlardan**- ammos, ammiak, selitra, karbamid, superfosfat, azotli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqaradi.

Asosiy korxonalar- Chirchiq elektro kimyo kombinati, Farg'ona azotli o'g'itlar, Navoiy azot, Qo'qon superfosfat, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq ammos birlashmalaridir. Sulfat kislota Olmaliq, Samarqand, Navoiy, Muborak gazni qayta ishlash kompleksida barpo etilgan.

O'simliklarni himoya qilishning **kimyoviy vositalari** (defolyant, gerbisid, fungisidlar) "Farg'onazot", "Navoiy elektro kimyo" korxonasida nitron, kotozan, fozalan, va hokozalar ishlab chiqariladi. **Kimyoviy tolalar va iplar**- Chirchiq elektro kimyo korxonasida kaprolaktam, Farg'ona kimyoviy tolalar zavodida asetat iplar, Navoiy azotda nitron-akril tolalari, Farg'onazotda selyuloza asetati ishlab chiqariladi.

Gidroliz korxonalari- Farg'ona furan birikmalari zavodi, Yangiyo'l biokimyo va Andijon gidroliz zavodlarida texnik etil spirti, furfuro, furil spirti, katalizatorlar ishlab chiqariladi. **Rezina mahsulotlari** Angren "O'zbekrezina texnika", "Toshkent rezina texnika", zavodlarida shina va kalishlar ishlab chiqariladi.

Plastmassa va propilen mahsulotlari- Ohangaronda "Santexlit", Jizzax plastmassa quvurlari zavodi, **lak- bo'yoq mahsulotlari**- Toshkent "Rangli lak" firmasi, **ro'zg'or kimyosi tovarlari**- Olmaliq ro'zg'or kimyosi, Namangan kimyo zavodlarida ishlab chiqariladi.

Keyingi qisqa davr ichida Qizilqum fosforit zavodi, "Kimyotola" ishlab chiqarish birlashmasi, qator hududlarda –Toshkent, Qashqadaryo, Andijon, Namangan va boshqa viloyatlarda zamonaviy to'qimachilik va tikuvchilik kombinatlari qurib ishga tushirildi. Andijon, Qo'qon, Yangiyo'l shaharlaridagi biokimyo zavodlari rekonstruksiya qilindi.

Qurilish materiallari sanoati. Sement, asbest, devorbop materiallar, noruda qurilish materiallari, ohak, gips va shunga o'xshash 100 dan ortiq mahsulotlar ishlab chiqaradi. 1913 yilda Bekobod sement zavodi qurildi. Yiliga 5 mln tonna sement respublikaning 5 ta yirik korxonasida ishlab chiqariladi. (Bekobod, Navoiy, Angren, Ohangaron, Quvasoy) respublikada 30 dan ortiq marmar korxonalari bor. Yirik korxonalari- G'azalkent toshga ishlov berish kombinati, Toshkent toshga ishlov berish kombinati, Nukus granit-marmar zavodi, Nurota marmar zavodlaridir. Quvasoyda shisha, G'azalkent shisha-oina zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada 11 ta uysozlik kombinatlari va zavodlari, 300 ga yaqin yig'ma-temir beton zavodlari ishlab turibdi.

Yengil sanoat. Yengil sanoat O'zbekiston sanoatining rivojlanish darajasi va istiqbollariga ko'ra eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston yengil sanoatini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan paxta tozalash, pillakashlik, qorako'l terisiga, kanop tolasiga ishlov berish jun yuvish kabi tarmoqlar kiradi. Ikkinchi guruhga aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun keng iste'mol mollari-to'qimachilik, ip-gazlama, trikotaj, shoyi gazlama, tikuvchilik, poyabzal, mo'yna, gilam, shuningdek attorlik mollari, chinni idishlar kabi mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar kiradi.

O'zbekiston **paxta tozalash** sanoati korxonalari-Asaka, G'ijduvon, Buxoro, Qo'qon, Yangiyo'l, Qarshi, Zirabuloq, Namangan va Jumadagi paxta tozalash zavodlari eng yirik zavodlardir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi yengil sanoat tarmoqlaridan biri-**pillakashlik** sanoatidir. Bu sanoat tarmog'i O'zbekistonda yaxshi rivojlangan. O'zbekistonda birinchi pillakashlik fabrikasi 1921 yilda Farg'ona shahrida qurildi. Bunday fabrikalar keyinchalik Samarqand, Marg'ilon, Buxoro, Toshkent, Urganch va Shahrisabzda qurib ishga tushirildi.

O'zbekiston hududida ip va shoyi gazlamalar ishlab chiqarish qadimdan mavjud bo'lgan.

Eng yirik ip-gazlama korxonasi- Toshkent to'qimachilik kombinatidir. Bundan tashqari Fag'ona va Buxoro to'qimachilik kombinatlari, Andijon, Nukus ip- gazlama kombinatlari, Jizzax paxta yigiruv fabrikasi va boshqa qator shaharlarda yirik to'qimachilik korxonalari mavjud. **Shoyi gazlamalar** to'qiydigan korxonalar- Samarqand shoyi to'qish fabrikasi, Marg'ilon pillakashlik fabrikasi, Qo'qon, Namangan shoyi to'qish fabrikalaridir.

Ko'n poyabzal sanoati-Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Yangiyo'l, Chirchiq, Andijon, Namangan, Farg'ona fabrikalarida ishlab chiqariladi. Chinni buyumlar ishlab chiqaradigan yirik korxonalar- Toshkent chinni zavodi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy chinni zavodidir.

Oziq-ovqat sanoati respublika sanoat mahsulotining 13,6 %ini yetkazib bermoqda. Respublika oziq-ovqat sanoatida o'simlik moyi, konserva va sharob ishlab chiqarish tarmoqlari eng yaxshi rivojlangan. Bu tarmoqlar respublikaning o'zida mustahkam xom ashyo bazasi bilan ta'minlangan va bundan buyon ham mahsulotlarini boshqa davlatlar, iqtisodiy mintaqalarga ko'plab chiqarish maqsadida yuqori sur'atlarda rivojlantirilmoqda. Hozir O'zbekistondagi deyarli hamma moy zavodlari ekstraksiya usuliga o'tkazilgan. Guliston, Namangan, Urganch, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l va Toshkent moy kombinatlari tarmoqning eng yirik korxonalaridir.

Oziq-ovqat sanoatining **go'sht va go'sht mahsulotlari** ishlab chiqarish tarmog'i aholining kundalik ehtiyoji uchun go'sht, kolbasa, qazi, dudlangan cho'chqa go'shti, kotlet, ragu, mol va qo'y yog'lari, ilik yog'i va hokazolar tayyorlab beradi.

Yurtimizning **sut sanoati** korxonalarida saryog', qizitilgan saryog', pasterlangan sut, qaymoq, suzma, muzqaymoq, brinza, pishloq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Qandolat sanoati zamonaviy qandolat fabrikalari yoki oziq-ovqat sanoatining boshqa korxonalaridagi maxsus qandolat sexlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda qandolat sanoatiga aloqador 60 dan ortiq korxona bor.

2-jadval

O'zbekistonda asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Mahsulotlar	O'lchov birligi	1994	1997	1999
Elektr quvvati	Mlrd. kVt.s	47,8	46,1	45,4
Neft	Mln.t	5,5	7,9	8,1
Benzin	Ming t	1398	1360	1638
Tabiiy gaz	Mln.m ³	47,2	51,2	55,6
Ko'mir	Mln.t	3,8	2,9	3,0
Po'lat	Ming t	364	379	355,6
Traktorlar	Dona	1684	2852	1707
Paxta terish mashinalari	Dona	651	1049	278
Yengil avtomobillar	Ming dona	-	64,9	58,8
Videomagnitofonlar	Ming dona	23,9	140,6	6,7
Televizorlar	Ming dona	50,7	268,4	50,3
Kimyo tolasi	T	12490	7299	11472
Mineral o'g'itlar	Ming t	811	954,4	876,2
Sement	Mln.t	4,8	3,4	3,3
Paxta tolasi	Ming t	1384,8	1125	1018,0
Ip-gazlama	Mln.m ³	480	424,9	303,5
Poyafzal	Mln.juft	27823	5540	3870
Un	Ming t	2941,7	1727,1	1848,1
Guruch	Ming t	240,1	128,8	138,6
O'simlik yog'i	Ming t	359,7	276,4	227,6

Zaminning biror-bir burchagida qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan mamlakat bo'lmasa kerak. Respublikamiz uchun qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning ustivor yo'nalishlaridan biridir. U mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning deyarli uchdan bir qismini beradi. Qishloq xo'jaligi aholini turli-tuman noz-ne'matlar, sanoat tarmoqlarini esa xomashyo bilan ta'minlab turadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan yer va mulklar qayta taqsimlandi, ijtimoiy va tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qishloqlarda shirkatlardan tashqari xo'jalik yuritishning yangi shakllari-ijara xo'jaliklari, fermerlar, har xil turdagi hissadorlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga xo'jaliklararo korxonalar, tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tasarrufidagi yordamchi xo'jaliklar ham mavjud. Qishloq joylarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bu sohada tadbqiq qilinayotgan agrotexnologiya va texnika, seleksiya va urug'chilik sohasida jahon miqyosida qo'lga kiritilgan tajriba, dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish asosida arzigulik yutuqlarga erishilmoqda.

O'zbekistonda ish bilan band aholining 36 foizidan ortiqrog'i qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi. Tabiiy sharoiti, iqlimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik tarmoqlari va eng avvalo, uning yetakchi tarmog'I paxtachilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Respublika qishloq xo'jaligida paxtachilik bilan birga sholikorlik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi tarmoqlar ham rivoj topgan. Texnika ekinlaridan kanop va jut ham yetishtiriladi.

Bu ekinlar Toshkent viloyatida ekiladi. Samarqand viloyatidagi urgut tumani yuqori sifatli tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan. Tamaki qishloq xo'jaligining yuqori daromadli mahsuloti bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatning deyarli barcha hududlarida g'alla ekinlari asosan, bug'doy yetishtiriladi.

Yaqin yillargacha respublika g'alla mahsulotlari bilan o'zini to'la ta'minlay ololmas edi.

Endilikda samarali agrar siyosatni amalga oshirish tufayli, O'zbekistonda g'alla mustaqilligiga erishildi. Respublika g'allachiligida sholikorlik ham muhim o'rin tutadi. Sholikorlik asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida rivojlangan.

O'zbekistonda chorvachilik, ayniqsa uning asosiy tarmog'i bo'lgan qo'ychilik muhim o'rin tutadi. Qo'ychilikda esa qorako'lchilik o'ziga xos mavqega ega. Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasi bu borada asosiy hududlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining qadimiy va istiqbolli tarmoqlaridan biri bo'lgan pillachilik ham mamlakatimiz iqtisodiyotida katta o'rin tutadi. O'zbekiston jon boshiga pilla yetkazish bo'yicha jahonda birinchi, umumiy hajmi bo'yicha beshinchi o'rinda turadi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida respublikada vujudga kelayotgan fermer xo'jaliklar safini kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarni kuchaytirish borasida ish olib borilmoqda. Hozir mamlakatda bunday xo'jaliklar soni 215 mingdan ortib ketdi. 2007 yilda yetishtirilgan paxtaning 99 foizi, g'allaning 87 foizini fermer xo'jaliklari yetishtirib berdi.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning 94 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, Respublika qishloq xo'jaligida 200 dan ziyod agrofirma faoliyat ko'rsatmoqdi. Qishloq xo'jaligida jami 2007 yilda 3650 ming tonna paxta, 6250 ming tonna g'alla yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligi to'g'risida yuqorida keltirilgan fikrlar bu sohaning keng termoli ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi oldida qator muammolar ham mavjud. Ularni hal etish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega. Ushbu muammolar jumlasiga sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, o'simliklarda uchraydigan kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashni kuchaytirish kabilari kiradi. Ayni vaqtda qishloq joylarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, qishloq sanoati va Respublika agrar siyosati doirasida dolzarb masaladir.

REFERENCES

1. G.R.Asanov., M.Nabixonov., I.Safarov "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi" T 1994 y.
2. E.Nabiyev., A.Qayumov "O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati" T 2000 y.
3. A.S.Soliyev., L.Qarshiboyeva "Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari" –T 1999 y.
4. A.S.Soliyev va boshqalar "Mintaqaviy iqtisodiyot" T., 2003 y.
5. N.To'qliyev "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti" –T 1998 y.
6. M.R.Plotkin. «Osnovi promishlennogo proizvodstva». M. Izd. «Visshaya shkola»-1977.
7. SH.Israilov. «Sanoatning eng muhim tarmoqlari texnologiyasi asoslari». T. «O'qituvchi»-1978.
8. V.P.Maksakovskiy. «Geografiya mira». M. Izd. «Prosvetshenie»-1990.
9. B.Mirtursunov. «Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport asoslari» T.-2001, T.-200I (Ma'ruza matni), T. -2002.
10. S.Goncharov, S.Nikolaev. «Sovremennaya bumaga» J. «Yuniy texnik» M.-1978.
11. I.V.Matoshko. «Jiznenniye resursi zemli». Minsk. Izd. «Uroжай»-1990.